

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

JUMAYEV OLIMJON SADULLOYEVICH

**IPAKCHILIK KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Jumayev Olimjon Sadulloevich

Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish 3

Жумаев Олимжон Садуллоевич

Совершенствование методологии управления маркетинговой деятельности шелковых предприятий..... 35

Jumaev Olimjon Sadulloevich

Improvement of the methodology of activity marketing management in silk enterprises..... 71

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 77

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

JUMAYEV OLIMJON SADULLOYEVICH

IPAKCHILIK KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Iqt176 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xashimov Akram Abdiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Soliyev Axmadjon iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abdullayev Ilyos Sultanovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____ dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d.,
professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
i.f.f.d., dotsent v.b.

R.X. Karlibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida murakkab geosiyosiy vaziyatlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning maqsadli bozorda erkin harakat qilishlariga to‘sqinlik qilmoqda. Keskinlashib borayotgan xalqaro va milliy miqyosdagi raqobat sharoiti ishlab chiqaruvchilardan raqobat kurashining yangi va zamonaviy vositalarini joriy etib borishni taqozo etmoqda. Yengil sanoat sohasidagi yirik brend kompaniyalar iqtisodiy o‘shishning manbai sifatida ishlab chiqarishda mijozlarga yo‘naltirilgan samarali marketing strategiyalaridan foydalanmoqda. 2020-yilda 14,1 milliard AQSh dollariga baholangan jahon ipak bozori hajmi 2027-yilga kelib 22,1 milliard AQSh dollari miqdoriga yetishi kutilmoqda va 2020–2027-yillardagi o‘shish ko‘rsatkichi 6,6 foizni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda¹. Ipakchilik tarmog‘idagi rivojlanish tendensiyalari korxonalarda marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini muntazam ravishda takomillashtirib borish zaruratini namoyon etmoqda.

Jahon to‘qimachilik sanoatida ipakka bo‘lgan talabning ortishi, moda tendensiyalarining o‘zgarishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda xarid qobiliyatining oshishi asosiy tendensiyalari borasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ipakchilik sanoati tarmoq xususiyatlari va rivojlanish tamoyillarini tadqiq etish, mijozlarga yo‘naltirilgan innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsion marketing boshqaruvini amalga oshirish, ipak moda sanoatida jahon brendlarini shakllantirish, “Marketing 4.0” va “Marketing 5.0” konsepsiyalariga asoslangan biznes jarayonlarni boshqarish, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishda “4C” marketing strategiyalaridan foydalanish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ipakchilik tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalash, jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini ko‘paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida “ipak mahsulotlari eksportini 95 mln AQSh dollariga yetkazish”² strategik vazifa sifatida belgilangan. Shu jihatdan O‘zbekistonda ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usuliga bosqichma-bosqich o‘tish, pillani qayta ishlash korxonalarining o‘zlariga qarashli ozuqa bazasini yaratish, pilla xomashyosi yetishtirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va uni eksportga yo‘naltirilgan yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot holiga keltirgunga qadar chuqur qayta ishlash, xalqaro bozorlarda chuqur marketing tadqiqotlarini olib borish orqali ipakchilik korxonalarini innovatsion

¹ Lian, R. T., & Chen, C. (2019, July). Analysis of the Status Quo and Problems of Sichuan Silk Export. In 5th Annual International Conference on Management, Economics and Social Development (ICMESD 2019) (pp. 284-288). Atlantis Press.

² Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma’lumotlari (ITU) – www.itu.int

rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va marketing faoliyatini boshqarishni takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish taqozo etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 2-sentyabrdagi PF-6059-son “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-son “Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4411-son “Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 4-dekabrdagi PQ-4047-son “Respublikada pillachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3910-son “Respublikada pillachilik tarmog‘idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturi (2022–2026-yillar) hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahondagi bir qator yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Johns Hopkins University, Harvard University, Framingham State University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Beijing Institute of Fashion Technology (Xitoy), Vikram University (Hindiston), Tamil Nadu Agricultural University (Hindiston), Kyoto University (Yaponiya), Comilla University (Bangladesh), Yildiz Technical University (Turkiya) singari oliy ta‘lim muassasalarida olib borilmoqda.

Dunyoda ipakchilik sanoatini rivojlantirish, vertikal integratsiya tizimlarini yaratish, ipakchilik korxonalarining ta‘minot zanjirini samarali boshqarish va sotishning zamonaviy usullaridan foydalanish, korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish va qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirida qiymat yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini

³ Dissertatsiya ishida quyidagi bir qator xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan: The Digitalization of the World: From Edge to Core. An IDC White Paper-#US44413318. International Data Corporation; Nov 2018, www.itu.int, www.forrester.com, www.capgemini.com, mitsloan.mit.edu, eng.kist.re.kr, www.cnet.com, www.nielsen.com, www.kantar.com, accenture.com, www.mckinsey.com, www.ipsos.com, www.gfk.com, www.bcg.com, www.ieee.org, www.ibm.com/consulting, www.microsoft.com, www.sap.com, www.oracle.com

boshqarish metodologiyasini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida: sanoat korxonalarida marketing faoliyatini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan (Johns Hopkins University, AQSh); korxonalarining marketing faoliyatini raqamli transformatsiyalashning innovatsion vositalari ishlab chiqilgan (Harvard University, AQSh); ipakchilik mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslari takomillashtirilgan (Framingham State University, AQSh); sanoat marketingi va B2B bozoriga xos bo'lgan marketing menejmentining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan (Cambridge University, Buyuk Britaniya); ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni xalqaro moda tendensiyalari asosida olib borishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan (Beijing Institute of Fashion Technology, Xitoy); ipakchilik mahsulotlarining savdo marketingi infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (Vikram University, Hindiston); pilla xomashyosini samarali qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymat yaratishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (Tamil Nadu Agricultural University, Hindiston); xalqaro ipak bozori va uning rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan (Kyoto University, Yaponiya); jahon mamlakatlarning ipak mahsulotlari bozoridagi umumiy muammolar aniqlangan (Comilla University, Bangladesh); ipakchilik mahsulotlariga xorijiy mamlakatlarda talabni shakllantirish usullari va o'ziga xos yo'nalishlari aniqlangan (Yildiz Technical University, Turkiya).

Ipakchilik sanoatida marketingni boshqarish bilan bog'liq muammolar yechimi bo'yicha jahonning turli ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, ipak mahsulotlarining marketing strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish; korxonalarining bozor faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish; ipak sanoatida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish; eksport imkoniyatlarini oshirish; ipakchilikda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulot turlarini ko'paytirish; ipak va ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va sotishning innovatsion usullaridan foydalanish; korxonalarda marketing faoliyatini boshqarishda "Marketing 4.0." hamda "Marketing 5.0." konsepsiyalarini joriy etish va muammoli bozorlarni boshqarishning innovatsion tizimini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarda marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasining ilmiy-nazariy jihatlari Ansoff H.I., Day G.S., Shoker A.D., Srivastava R.K., Kotler P., Kartajaya H., Setiawan I., Porter M.E., Kumar N., Robertson T.S., Gatingon H., Uebster F. kabi ko'plab xorijlik olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁴.

⁴ Ansoff H.I. *New Corporate Strategy*. NY, John Wiley and Sons, 1988.; Day G.S., Shoker A.D., Srivastava R.K. *Customer-Oriented Approaches to Identifying Product-Markets* // *Journal of Marketing*. 1979. №43. Pp. 8-19.; Kotler, Philip, Hermawan Kartajaya, and Iwan Setiawan. *Marketing 5.0: Tecnología para la humanidad*. LID Editorial, 2021. Kotler P., Kartajaya H., Setiawan I. *Marketing 4.0: moving from Traditional to Digital*. – John Wiley & Sons, 2016., Porter M. E. *Strategy and the Internet* // *Harvard Business Review*, March 2001, pp. 62-78.; Porter M. *How Competitive Forces Shape Strategy*. URL: <https://hbr.org/1979/03/how-competitive-forces-shape-strategy>.; Kumar N. *Marketing as strategy* // *Harvard Business School Press*, Boston. – 2004. – pp. 7-9.; Robertson T.S., Gatingon H. *Competitive Effects on Technology Diffusion* // *Journal of Marketing*. 1986. №50. Pp. 1-12.; Rogers E.M. *New Product Adoption and Diffusion* // *Journal of Consumer Research*. 1976. № 2.; Уэбстер Ф. *Основы промышленного маркетинга*. Перевод с англ. –М.: изд. Дом Гребенникова, 2005. – 446 с.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida korxonalarda marketing faoliyatini boshqarish masalalari Bagiyev G.L., Gaydayenko T.A., Bepalko V.A., Bikovskaya I.V., Plotnikov C.B., Podcherin V.M., Gusev A.V., Isayeva Ye.V., Kolesnikov A.M., Dolotova N.L., Moiseeva N.K., Konisheva M.V., Pankruxin A.P., Tretyak O.A., Rebyazina V.A., Vetrova T.V. kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan⁵.

O'zbekistonda zamonaviy konsepsiyalar asosida korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish, boshqarish va marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari Akramov T.A., Bekmurodov A.Sh., Boltabayev M.R., Ikramov M.A., Salimov S., Soliyev A., Hakimov Z.A., Ergashxodjayeva Sh.Dj., Sharifxo'jayev U.U., Yusupov M. kabi iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan⁶. Biroq mazkur tadqiqotlarda korxonalarining zamonaviy marketing konsepsiyalariga moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, OT-F2-050-raqamli "Yengil sanoat korxonalarining marketing faoliyatida motivatsiya usullaridan foydalanish samaradorligini oshirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁵ Багиев Г.Л. и др. Маркетинг учебник. М. «Экономика», 2001, 73.; Гайдаенко Т.А. Маркетинговое управление. – М., Эксмо, 2008. – 512 с.; Багиев Г.Л. Маркетинг. Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 736 с.; Беспалько В.А. Стратегии, формы и методы ценовой и неценовой конкуренции в теории и методологии промышленного маркетинга. Краснодар, ККИ, 2017. – 240 с.; Быковская И.В., Плотников С.В., Подчерин В.М. «К вопросу формирования маркетингового бюджета»// Маркетинг в России и за рубежом №6 2001 г.; Гусев А.В., Развитие методов внутрифирменного управления затратами на маркетинг, дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Андрей Викторович Гусев. — СПб., 2004. – 152 с.; Исаева Е.В. Организация управленческого учета маркетинговой деятельности на предприятии //Проблемы современной экономики. 2006. № 1–2. С. 15–22.; Колесников А.М., Долотова Н.Л., Методы определения и контроля затрат в маркетинговой деятельности предприятия// Технология легкой промышленности. 2014. № 3. С. 16-19; Моисеева Н.К., Конышева М.В. Управление маркетингом: теория, практика, информационные технологии: Учеб. пособие / Под ред. Н.К. Моисеевой. — М.: Финансы и статистика, 2002. – 304 с.; Панкрухин А.П. Маркетинг территорий: состояние и перспективы в России /А.П. Панкрухин //Маркетинг в России и за рубежом. – 1997. – №. 2. – С. 83–96.; Терещенко В.М. Маркетинг-терапия. СПб., Питер, 2004. – 288 с.; Третьяк О.А., Ребызина В.А., Ветрова Т.В. Современные маркетинговые практики в России: результаты эмпирического исследования // Российский журнал менеджмента. 2015. Том 13. № 1. 2015. С. 3–26.;

⁶ Акромов Т.А. Автомобиль саноати корхоналарида маркетинг стратегияларини такомиллаштириш. 08.00.11 – Маркетинг (иқтисодиёт фанлари). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси. ТДИУ, Тошкент, 2018 йил.; Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2006. – 112 с.; Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: ТДИУ, 2005. – 35 б.; Солиев А. Бузрукханов С. Маркетинг. Бозоршунослик. – Т.: Иқтисод-молия, 2010. 106 -576 б.; Хакимов З.А. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини ошириш омили. – Т.: Иқтисод-молия, 2016 йил. – 216 б.; Эргашходжаева Ш., Шарифхўжаев У. Маркетингни бошқариш. Дарслик. – Т.: Иқтисодиёт, 2019 й. – 462 бет; Юсупов М., Абдурахманова М.М. Маркетинг (кўргазмали ўқув қўлланма) – Т.: Иқтисодиёт, 2007. – 157 б.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalarda marketing faoliyatini boshqarishning mohiyati, funksiyalari va tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilish;

korxonalarining zamonaviy marketing konsepsiyalariga moslashuvchan boshqaruv strategiyalarining ilmiy-metodologik asoslarini o'rganish;

korxonalarda marketing faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellarini tizimlashtirish;

ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish;

jahon ipakchilik bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish bo'yicha metodologik yondashuvlar ishlab chiqish;

O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish tendensiyalarini baholash va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash;

ipakchilik korxonalarida marketing bo'limlari faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish metodologiyasini takomillashtirish;

ipakchilik korxonalarining tovar strategiyasini takomillashtirish va eksport imkoniyatlarini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ipakchilik korxonalarida savdo marketingi tizimining samarali arxitekturasini yaratish;

ipakchilik korxonalarida marketing kommunikatsiyasi kompleksini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatib berish;

ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarmoq korxonalarining marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida guruhlash, tarkibiy yondashuv, qiyosiy tahlil, miqdoriy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, monografik tadqiqot, regression va korrelyatsion tahlil, statistik kuzatish, reyting baholash, kuzatuv, so'rovnomalar, ekspert baholash, segmentlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "marketing faoliyatini boshqarish" tushunchasi korxonaning bozorda uzoq muddat muvaffaqiyatli ishlashi va iqtisodiy barqaror rivojlanishi, bozor ulushi va o'z brendini imijini oshirish bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarini amalga oshirish uchun marketing faoliyati resurslari va imkoniyatlaridan optimal foydalanish asosida iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalarini bajarish metodologiyasi, usullari, tartiblari va harakatlari majmuyi sifatida takomillashtirilgan;

murakkab tizimlarning bog'lanish kuchini aniqlash ketma-ketligiga asoslangan usulda ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bozor ulushiga ($\beta=0,868$) va rentabelligiga ($\beta=0,829$) ijobiy hamda

raqobatbardoshligiga ($\beta=-0,465$) salbiy ta'sirlariga ko'ra strategik qarorlarni optimal tanlash asoslangan;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo‘limlar faoliyatini mazkur yo‘nalishdagi metodologik va amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tatbiq etishdan iborat “tarmoq+korxonalar” parallel marketing siyosati asosida takomillashtirish taklif etilgan;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida savdo marketingi arxitekturasida qo‘shilgan qiymat yaratishda maqbul taqsimot tizimlari hisoblangan logistika xizmatlarining avtonom tizimida insorsing ($0 \leq IS \leq 0,15$), qisman ($0,16 \leq AS_Q \leq 0,31$) va murakkab ($0,32 \leq AS_M \leq 0,65$) logistika tizimlarida autsorsing hamda malakaga erishish uchun tashqi ishchi kuchidan foydalanishda autstraffing ($0,66 \leq AS_t \leq 1$) strategiyalaridan foydalanishning optimal chegaralari asoslangan;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida ipakchilik faoliyati jarayonlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarning marketing boshqaruvi bilan bog‘liqligini ekonometrik modellashtirish asosida 2027-yilga qadar mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmining prognoz ko‘rsatkichlari baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ipakchilik korxonalarida faoliyatida marketingni boshqarish jarayoni rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar aniqlangan;

ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish jarayoni va uni integrallashgan marketing vositalari asosida takomillashtirish bo‘yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

ipakchilik korxonalarida mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash va marketingni boshqarish metodologiyasidan foydalanish asosida o‘zaro munosabatlar konsepsiyasi taklif etilgan;

ipakchilik korxonalarining mijozlar bilan samarali aloqa qilish tizimining resurslar, motivatsion vositalar va kommunikatsiya kanallarini uyg‘unlashtirishda integratsiyalashgan marketing kommunikatsiya kompleksi dastaklari taklif etilgan;

ipakchilik korxonalarida faoliyatida marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda erishilgan natijalardan soha qonunchiligini rivojlantirish, iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida “Marketing”, “Marketingni boshqarish” fanlaridan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar tayyorlash, shu bilan birga, marketingni boshqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish amaliyotida resurslardan

samarali foydalanish va ularni boshqarish, rasmiy veb-saytda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, statistik ma'lumotlar va zamonaviy dasturiy paketlar asosida amalga oshirilgan tadqiqot vositalaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "marketing faoliyatini boshqarish" tushunchasini korxonaning bozorda uzoq muddat muvaffaqiyatli ishlashi va iqtisodiy barqaror rivojlanishi, bozor ulushi va o'z brendini imijini oshirish bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarini amalga oshirish uchun marketing faoliyati resurslari va imkoniyatlaridan optimal foydalanish asosida iste'molchilarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalarini bajarish metodologiyasi, usullari, tartiblari va harakatlari majmuyini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketing" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 21-dekabrda 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan № 387-02-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda marketing faoliyatini boshqarish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

murakkab tizimlarning bog'lanish kuchini aniqlash ketma-ketligiga asoslangan usulda ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatining boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bozor ulushi ($\beta=0,868$) va rentabelligiga ($\beta=0,829$) ijobiy hamda raqobatbardoshligiga ($\beta=-0,465$) salbiy ta'sirlariga ko'ra strategik qarorlarni optimal tanlash asoslangan takliflardan foydalanish taklifi "O'zbekipaksanoat" uyushmasining 2023-yil 26-iyundagi 30-23 f/o sonli buyrug'iga asosan, tarmoq korxonalarida faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekipaksanoat" uyushmasi tomonidan 2023-yil 26-iyunda berilgan 4/1-993-son ma'lumotnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uyushma tarmoq korxonalarining xalqaro bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari ishlab chiqilgan. Natijada "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarmoq korxonalarida eksportini 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 9,9 foizga oshirish va ichki bozorda ipakchilik mahsulotlari importini 4,1 foizga kamaytirishga erishilgan;

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo'limlar faoliyatining mazkur yo'nalishdagi metodologik va amaliy jihatlarni taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tatbiq etishdan iborat "tarmoq+korxonalar" parallel marketing siyosati asosida takomillashtirish taklifi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekipaksanoat" uyushmasi tomonidan 2023-yil 26-iyunda berilgan 4/1-993-son ma'lumotnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uyushma tarmoq korxonalarining funksional tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish va marketing bo'limlari faoliyatini optimallashtirish, korxonalarining marketing xarajatlarini "Khiva Silk Fabric" MChJda 5,6 foiz, "Nurll Tong Silk" MChJda 9,8 foiz, "Andijan Silk SO" MChJda 24 foizga kamaytirishga erishilgan;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida savdo marketingi arxitekturasida qo‘shilgan qiymat yaratishda maqbul taqsimot tizimlari hisoblangan logistika xizmatlarining avtonom tizimida insorsing ($0 \leq IS \leq 0,15$), qisman ($0,16 \leq AS_Q \leq 0,31$) va murakkab ($0,32 \leq AS_M \leq 0,65$) logistika tizimlarida autsorsing hamda malakaga erishish uchun tashqi ishchi kuchidan foydalanishda autstraffing ($0,66 \leq AS_t \leq 1$) strategiyalaridan foydalanishning optimal chegaralari bo‘yicha berilgan taklif “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarining sotish faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan 2023-yil 26-iyunda berilgan 4/1-993-son ma’lumotnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uyushma tarmoq korxonalarining ipakchilik mahsulotlarini sotish hajmini 13,7 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida ipakchilik faoliyati jarayonlari dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarning marketing boshqaruvi bilan bog‘liqligini ekonometrik modellashtirish asosida 2027-yilga qadar mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmining prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarining marketing faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan 2023-yil 26-iyunda berilgan 4/1-993-son ma’lumotnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uyushma tarmoq korxonalarining bozordagi ulushini 12,6 foizga oshirish imkoni aniqlanib, tarmoq korxonalarini tomonidan ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta maqola (shundan 11 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plamlarida 12 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korxonalarda marketing faoliyatini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishning mohiyati, zamonaviy marketing konsepsiyalariga moslashuvchan boshqaruv strategiyalari hamda korxonaning marketing faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Korxonalar – bozor subyekti, uning maqsadlari bozorda amalga oshadi, shuning uchun uning faoliyati bozorga yo‘naltiriladi. Korxonalarni bozor holatiga moslashtirib borish, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash, innovatsiyalar va fan-texnika yutuqlarini joriy etishga yo‘naltirish, ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish, tovarlar assortimentini kengaytirish, foyda tushumlarini yanada ko‘paytirishni ta‘minlovchi eng asosiy vosita – bu marketingdir. Marketing faoliyatini boshqarish esa tashkilotning funksional sohalaridan biriga, masalan, marketing bo‘limiga tegishli faoliyatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi.

Marketingni boshqarish korxonaning tashkiliy maqsadlarga mos kelishi va standartlarga muvofiqligini ta‘minlash uchun zarur doiralar hamda boshqarish vositalarini belgilashga e‘tibor qaratadi. Bular, asosan, korxonalar faoliyatini bozorga moslashtirishga qaratilgan (ichki) faoliyatni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Marketingni boshqarish shuning uchun ham aksariyat holatlarda marketing faoliyatini boshqarish sifatida ishlatiladi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqanda uslubiy yondashuvga ko‘ra, “marketing faoliyatini boshqarish” tushunchasi korxonaning bozorda uzoq muddat muvaffaqiyatli ishlashi va iqtisodiy barqaror rivojlanishi, bozor ulushi va o‘z brendining imijini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan maqsadlarini amalga oshirish uchun marketing resurslari va imkoniyatlaridan optimal foydalanish asosida iste‘molchilarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalarini bajarish metodologiyasi, usullari, tartiblari va harakatlari majmuyi sifatida qaralishi lozim. Taklif etilgan yondashuvga ko‘ra, korxonalar marketing faoliyatini boshqarishga tashqi muhitga nisbatan ichki faoliyatlarni qay tarzda rivojlantirish qobiliyatiga ega ekanligi va korxonaning o‘z maqsadlari yo‘lida qay darajada harakat qilayotganligining ifodasi sifatida qarash lozim.

Korxonalar marketing faoliyatini boshqarish konsepsiyasi korxonaning umumiy maqsadlariga erishishda iste‘molchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkilotning marketing faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Bu uzoq muddatli muvaffaqiyat, barqaror rivojlanish, bozor ulushini oshirish va ijobiy brend imijini yaratish uchun bozordagi resurslar va imkoniyatlardan foydalanishga tizimli yondashuvlar asosida faoliyatlarni amalga oshirishni ta‘minlashga qaratilgan faoliyatlardir.

Marketing faoliyatini boshqarish makro va mikro muhitning o‘zgaruvchan bozor sharoitida bozor subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va uning yadrosini shakllantirish, mijozlar bilan yaxlit ijtimoiy va axloqiy munosabatlar hamda korporativ yo‘nalishni hisobga olgan holda, uzoq muddatli muntazam o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni ta‘minlaydigan jarayonlar va tizimlar majmuyidir. Korxonalar maqsadlari marketing boshqaruviga qarab shakllanadi.

Marketing faoliyatini boshqarish modelini joriy etish korxonaning marketing bo‘limi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va marketing faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Nazorat funksiyalari korxonaning marketing faoliyatini boshqarish uchun maxsus tuzilgan bo‘lim tomonidan amalga oshirilishi kerak. Korxonaning marketing faoliyatini boshqarish bo‘limi korxonaning barcha bo‘linmalari faoliyatini umumiy boshqarishi va muvofiqlashtirishi lozim.


Fikrimizcha, marketingni boshqarish funksiyalari tahlil, rejalashtirish va nazorat qilish asosida erkin bozor raqobati sharoitida korxonalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiradigan, innovatsion sikl davomida mijoz bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradigan boshqaruvni tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga, tarmoq va sohalar marketing tizimlari subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarning ko‘p formatli modelining integratsiyalashgan marketing imkoniyatlaridan foydalanish zamonaviy marketing boshqaruvining asosiy metodologik yondashuvi bo‘lishini talab etadi.

Korxonada marketing faoliyatini samarali tashkil qilish uning boshqaruv tizimini joriy etishni amalga oshirishning foydali modelini yaratishni talab qiladi.

Korxonalarda marketingni boshqarish zamonaviy metodologiyasining muhim xususiyati uning tijorat va notijorat tashkilotlari marketingi yo‘nalishlarida farqlanishi bilan birga, ta‘limotlarning turli sabablari, maqsadlari, vazifalari hamda motivlari, shuningdek, marketing faoliyatining shakllari va vositalari bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy korxonalar va tashkilotlar faoliyatida marketingni boshqarishning mazmuni va xususiyatlarini tavsiflovchi eng dolzarb uslubiy yondashuvlarga F.Kotlarning “raqamli marketing va menejment”, O.A. Tretyakning “marketingning ustun mantiqi”, “munosabatli marketing paradigmasi”, “zamonaviy marketing amaliyoti”, V.M. Tereshchenkoning “marketing terapiyasi”, V.A. Bepalkoning “raqobatbardoshlik va raqobatbardosh barqarorlik” kabi nazariyalari xosdir.

Zamonaviy sharoitda korxonalar marketing menejmentining an’anaviy va raqamli xususiyatlari va ustuvor strategik maqsadlari nuqtayi nazaridan yangicha metodologik yondashuvlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, jahon olimlari tomonidan marketingga xaridorlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish, saqlab qolish, rivojlantirish hamda maqsadlarga erishish yo‘lidagi eng samarali jarayon deb qaralmoqda. Mazkur yondashuvga asoslanganda, marketing faoliyatini raqamlashtirish va iste‘molchilar bilan aloqalar o‘rnatish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish tizimidagi texnologik inqiloblar korxonalar marketing faoliyatining asosini tashkil etmoqda. Ushbu holatlardan kelib chiqib, iste‘molchilar xulq-atvorining klassik modellarini umumlashtirib, ularni jalb qilish, uzoq muddatli barqaror o‘zaro hamkorlik munosabatlarini mijozlarga yo‘naltirilgan marketingni boshqarishning an’anaviy va raqamli vositalarini birlashtirish zaruriyati mavjud. 1-rasmda taklif etilgan yondashuv marketing menejmentining ustuvor yo‘nalishlari sifatida an’anaviy va raqamli vositalarni birlashtirish g‘oyasiga asos yaratadi.



1-rasm. Mijozlarga yo‘naltirilgan marketingni boshqarishning an‘anaviy va raqamli vositalarini birlashtirish⁷

Shunday qilib, marketing menejmenti predmeti samarali talabni shakllantirishdan tashqariga chiqadi va tarqoq marketing ta’sirlarini aniq nuqtaga to‘plashga qaratish, tashkilotga funksional yondashuv cheklovlarini yengib o‘tish, bozorda ma’lum bir korxonaning mavjudligi va faoliyati zarurligini belgilovchi strategik vazifalarni belgilash, operatsion harakatlarni amalga oshirish va baholashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda jahon ipakchilik bozorining rivojlanishi, ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos jihatlari, ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarishni tahlil etish bo‘yicha metodologik yondashuvlar keng yoritib berilgan.

Ipakchilik sanoatning yuqori rentabelli tarmog‘i sifatida jahon mamlakatlarida qadimdan rivojlangan sohalar sifatida qayd etiladi. Ipakchilik sanoati ipak qurti yetishtirishdan boshlab, mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan keng tarmoq sifatida doimiy talab mavjudligi bilan o‘ziga xos soha hisoblanadi.

Ipak tolasidan sanoatda turli yo‘nalishlarda foydalaniladi. Harbiy sohada tanani himoyalovchi (bronjilet) vositalar, parashyutlar yasash uchun ishlatiladi. Bugungi kunda, asosan, kiyim-kechak ishlab chiqarishda ipak tolasidan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ipak to‘qimachilikdan tashqari kosmetika va dorivor sohalarda ham keng qo‘llaniladi.

Ipak jahon to‘qimachilik tolasi bozorining kichik qismini, ya’ni 0,2 foizdan kamrog‘ini tashkil qiladi⁸. Biroq ipak va ipak mahsulotlarining haqiqiy savdo qiymati sezilarli darajada yuqori. Bu ko‘p milliard dollarlik sanoat bo‘lib, ipak

⁷ Muallif ishlanmasi

⁸ <https://www.maximizemarketresearch.com/>

xomashyosining narxi paxta xomashyosidan yigirma baravar qimmatdir. Jumladan, Xitoy milliy ipak import va eksport korporatsiyasining yillik aylanmasi 2-2,5 milliard dollarni tashkil qiladi⁹. Jahon bo'yicha yiliga o'rtacha 609 ming tonnadan ortiq ipak tolasi ishlab chiqariladi. Unda yetakchi mamlakat sifatida Xitoy yuqori ulush – qariyb 60 foiz, Hindistonning ulushi 15 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Jahon bozorida asosiy ipak tolasi ishlab chiqaruvchi davlatlar¹⁰

№	Davlatlar	Ipak tolasi ishlab chiqarish, tonna
1	Xitoy	146 000
2	Hindiston	28 708
3	O'zbekiston	1 100
4	Tailand	692
5	Braziliya	560
6	Vyetnam	420
7	Janubiy Koreya	320
8	Turkiya	32

Hindiston bu matoga talabi yuqoriligi bilan diqqatga sazovor bo'lib, bu yerda mahalliy talab taklifdan oshib ketadi. Hozirgi vaqtda Hindiston jahonda ikkinchi yirik ipak ishlab chiqaruvchi mamlakat bo'lishiga qaramay, ipak tolasining asosiy importyorlaridan biriga aylangan.

Ipakchilik Fransiya, AQShda ham keng rivojlangan tarmoqlardan biridir. To'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari tarkibida, shu jumladan, ipakli mahsulotlar uchun eng katta Yevropa bozori Germaniyadir. Tabiiy tolalar nemis iste'molchilari tomonidan afzal ko'riladigan mahsulotlardan biri bo'lib, Germaniya turli xil ipakli kiyimlar, aksessuarlar (ayniqsa, ipak yostiq qoplamalari) va ichki bezak uchun materiallarni import qiladi. Hindiston va Tailand ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari uy jihozlari uchun qo'lda tikilgan ipak to'qimachilik sohasi bilan muvaffaqiyatga erishgan.

Ipakchilik tarmog'ida yaratilayotgan mahsulotlar aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirib, turmush darajasi, madaniyatini oshirish bilan birga, mamlakatga asosiy valyuta tushumini ta'minlashda ham hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

O'zbekiston ipakchilik tarmog'i yaxlit kompleks tizim sifatida shakllanib, jami sanoat mahsulotlarining 1,0 foizdan ko'prog'ini ishlab chiqarmoqda. Lekin tarmoq korxonalarining mahsulotlari jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishida bir qator bilvosita va bevosita ta'sir qilayotgan omillar mavjud bo'lib, ularning ta'sirida tarmoqda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Ipakchilik sanoati mamlakatda boshqa sanoat tarmoqlari uchun asosiy qo'shimcha sanoat tovarlari yetkazib beradi. Ipakchilik bozori bir qator xususiyatlariga ko'ra, boshqa iste'mol tovarlari, xizmatlar va sanoat bozoridan farq qilganligi sababli ularning marketing faoliyati, ularni qo'llash doirasi, strategiyalari va faoliyat uslubiylari ham farqlanadi.

⁹ <https://www.maximizemarketresearch.com/market-report/global-silk-market/26259/#:~:text=Silk%20Market%20size%20was%20valued,reaching%20nearly%20US%24%2030.29%20Bn.>

¹⁰ <https://stranatur.ru/world-leaders-in-silk-production.html>

Ipakchilik sanoati korxonalarining marketing faoliyati ularga xomashyo va texnologiyalar yetkazib beruvchilar hamda tayyor mahsulotlarni sotib oluvchi xaridorlar o'rtasidagi o'zaro bozor jarayonlarining ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ifodalaydi.

Ipakchilik sanoati korxonalarining marketing faoliyatini uning tarkibidagi subtarmoqlar faoliyatlariga ko'ra ham belgilash maqsadga muvofiq. Sababi xomashyoning birlamchi qayta ishlash jarayonlari, masalan, "ipak xomashyosini qayta ishlash", "ip yigirish", "gazlama to'qish" sanoat marketingi (B2B) bozori xususiyatlarini o'zida ifodalasa, "tikuv kiyimlari", "gazlamalar" va "gilamlar" iste'mol tovarlari marketingi (B2C) bozori xususiyatlarini anglatadi.

Ipakchilik sanoati korxonalarining marketing faoliyati modeli sifatida uning bozorga yo'naltirilgan jarayonlarini aks ettiruvchi faoliyatlar majmuasi va o'zaro aloqadorligi 2-rasmda keltirilgan. Rasmdagi bog'lanishlar korxonalar marketing faoliyatini nazariy jihatdan asoslagan holda, ketma-ket davomiyligi va uni shakllantiruvchi omillarning o'zaro bir-biri bilan uzviy munosabatlarini bildiradi.

Marketing har qanday korxonalar faoliyatining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Mazkur faoliyat kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini ilgari surish, mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish, shuningdek, biznes maqsadlariga erishishga qaratilgan bir qator strategiya va taktikalarni o'z ichiga oladi. Ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatida doimiy o'tkaziladigan asosiy marketing tadbirlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

bozor tadqiqoti: maqsadli bozorni tushunish asosiy hisoblanadi. Korxonalar mijozlarning ehtiyojlari, ustunliklari va xatti-harakatlari haqida ma'lumot to'plash uchun bozor tadqiqotlarini o'tkazadi. Ushbu ma'lumotlar marketing to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradi;


mahsulotni ishlab chiqarish va innovatsiyalar: marketing faoliyati ko'pincha mijozlar talablariga javob beradigan yoki ularning muammolarini hal qiladigan mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish bilan boshlanadi. Doimiy innovatsiyalar raqobatbardosh bo'lish uchun juda muhimdir;

branding: kuchli brend identifikatorini yaratish va barcha marketing materiallari va kanallarida brend izchilligini ta'minlash brend tan olinishi hamda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi;

marketing kommunikatsiyasi faoliyati: onlayn reklama, bosma ommaviy axborot vositalari, televideniye, radio va tashqi reklama kabi turli kanallarni o'z ichiga oladi. Korxonalar maqsadli auditoriyaga erishishda eng samarali bo'lgan reklama usullarini tanlaydi: kontent marketingi, qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), ijtimoiy media marketingi (SMM), jamoatchilik bilan aloqalar (PR), sotishni rag'batlantirish, hamkorlik marketingi;

bozorni segmentlash: bozorni o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan segmentlarga bo'lish va har bir segment uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish;

tahlil va ma'lumotlarni tahlil qilish: marketing kampaniyalari samaradorligini monitoring qilish va strategiyalarni tuzatish hamda optimallashtirish uchun ma'lumotlardan foydalanish;



2-rasm. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish modeli¹¹

¹¹ Muallif ishlanmasi.

raqobat tahlili: kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, farqlash imkoniyatlarini topish uchun raqobatchilarni o'rganish;

mijozlarning fikr-mulohazalari va so'rovlari: mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda marketing harakatlarini yaxshilash uchun mijozlarning fikr-mulohazalarini to'plash va tahlil qilish.

Marketing faoliyati muvofiqlashtirilgan, izchil va kompaniyaning umumiy biznes strategiyasiga mos kelishi kerak. Muvaffaqiyatli marketing korxonalariga mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish, sotishni kuchaytirish va oxir-oqibat moliyaviy va strategik maqsadlarga erishishga yordam beradi. Shunga ko'ra, korxonalar marketing faoliyati samaradorligining doimiy monitoringini amalga oshirishi lozim. Marketing muammolarini hal qilishda resurslar va marketing natijalarini nazorat qilish marketing bo'lmagan bo'linmalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Korxonalar marketing faoliyatini boshqarishda iqtisodiy tahlil va auditning zarurligini ta'kidlagan holda, nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki mijozlar bilan ishlash faoliyatini tahlil qilish lozimligini ham ko'rsatib bergan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish holati tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston ipakchilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan, korxonalarda marketing faoliyatini boshqarish kompleks iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish metodologiyasi asosida baholangan hamda O‘zbekiston ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish holati o'rganilgan. Tahlil natijalari asosida ipakchilik korxonalarida marketing bo'limlari faoliyatini samarali tashkil etishning uslubiy asoslari takomillashtirilgan.

Pilla yetishtirish va ipakni qayta ishlashni o'z ichiga oluvchi sanoat tarmog'i dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida mavjud bo'lib, yuqori bandlik salohiyatiga ega hamda daromadli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ipak tolasi va undan olinadigan mahsulotlar o'zining nafisligi, nozikligi va ekologik toza tabiati tufayli bozorda ehtiyoji yuqori bo'lgan mahsulot sirasiga kiradi. Sanoat usulida qayta ishlangan ipak tolalari to'qimachilik sanoati, tibbiyot va informatika kabi murakkab sohalarda keng qo'llaniladi. Shu sababli ipakka bo'lgan talab har doim bozorda yuqori bo'lsa-da, mavjud talabni qondirish imkoniyatlari doimiy ravishda ishlab chiqarish yoki iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasida turli xil to'siqlarga duch keladi.

Ipakchilik O‘zbekistonda tarixiy bosqichlarni o‘tagan soha bo‘lib, aholisining uzoq yillik va an’anaviy avloddan-avlodga o‘tishi bilan saqlanib va rivojlanib kelayotgan sohadir. O‘zbekiston uchun ipakchilik tarmog‘ining asosiy xususiyati uzoq yillik tarixga ega ekanligi bilan bir qatorda, “Atlas” brendining xalqaro brend darajasiga ko‘tarilgani va kiyim sanoatida “Prette-porte” brendlari qatorida turishidir.

O‘zbekiston ipakchilik sanoati tutzorlarning qisqarib ketishi va tut plantatsiyalarining yetarlicha tashkil etilmasligi, tutzorlarni parvarish qilishda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar, xo‘jalik yuritish shakllarining noto‘g‘ri tanlanishi, mahsulot yetkazib berish, uni qayta ishlash yo‘nalishlarining bir-biridan ajratilishi ishlab chiqarishning pasayishi va ipak xomashyosining qimmatlashuviga, natijada bozor talabini to‘liq qondira olmaslikka sabab bo‘lgan.

Bir qator tizimli muammolar sabab O‘zbekiston Yevropa va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning bozoriga kirib borish va o‘zining ipak mahsulotlarini

sotishda qiyinchiliklarga duch keldi. Rivojlangan mamlakatlar ipak mahsulotlari importi, asosan, Xitoy va Hindistonda amalga oshirilayotganligi bois O‘zbekistonning eng daromadli mamlakatlarga ipak mahsulotlari eksportidagi ulushi pastligicha qolmoqda. 2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida jami 54,8 ming ga yer maydonlarida ipak qurti uchun tutzorlar mavjud bo‘lib, 5-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilga nisbatan 11,1 ming ga yoki 125,5 foizga ortgan.

O‘zbekistonning mavjud iqlim sharoitlari tut daraxtlaridan yiliga ikki marta hosil olish imkoniyatini beradi. Shunga ko‘ra, yetishtirilgan pilla xomashyosi (1-2-mavsum) 2017-yilda 12,4 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunlari bo‘yicha bu ko‘rsatkich 11,7 ming tonna yoki qariyb ikki martaga oshgan. Dala va yo‘l chetlarida mavjud yakka qator tut ko‘chatlarining soni ham yildan-yilga o‘sishi kuzatilmoqda. 2017-yilda yakka qator tutlar soni 45,5 mln donaga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 217,4 mln donadan ortib ketganligini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, keyingi yillarda “Yashil makon” umummilliy davlat dasturi doirasida tut ko‘chati ekishga ham katta e’tibor qaratilishi natijasida ularning soni sezilarli ortmoqda (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2017–2022-yillarda mavjud tutzor va yakka qator tut daraxtlari, ekilgan tut ko‘chatlari hamda yetishtirilgan pilla xomashyosi¹²

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-y.da 2017-y.ga nisbatan	
									+/-	%
1	Mavjud tutzorlar	ming gektar	43,7	46,3	48,7	50,3	54,8	54,8	11,1	125,5
2	Mavjud yakka qator tut daraxtlari	mln tup	45,5	61,1	79,7	85,5	149,7	217,5	172,0	478
3	Ekilgan tut ko‘chatlari	mln tup	2,9	32,9	63,1	82,1	120,4	123,0	120,1	4249,9
4	Yetishtirilgan pilla xomashyosi (1-2-mavsum)	ming tonna	12,5	15,7	19,6	20,9	22,8	24,2	11,8	194,2

Yakka qatorlar va tutzorlarga yangidan barpo etish hamda rekonstruksiya qilish uchun ekilgan tutlar soni 2017-yilda 2,9 mln donani tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda 32,9 mln dona, 2022-yilda qariyb 123 mln dona tut ko‘chatlari ekilgan. 2017–2022-yillarda jami 14,3 ming gektar yaroqsiz tutzorlar rekonstruksiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-sonli qaroriga asosan, mavjud tutzorlarni aholi daromadini oshirish maqsadida, ya’ni aholi tomonidan yetishtirilgan pilla hosilini sotishdan tashqari tutzorlar orasiga qo‘shimcha ekinlar ekish orqali olinadigan daromadlarni ularning o‘zlariga qoldirish maqsadida 54,8 ming gektar tutzorlar 64,8 ming nafar aholiga birlashtirib berilgan. Mazkur qaror

¹² “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

doirasida 43,2 ming gektar tutzor oralariga qishloq xo‘jalik ekinlari, jumladan, 8,6 ming gektarga bug‘doy, 6,8 ming gektarga makkajo‘xori, 3,1 ming gektarga arpa, 2,8 ming gektarga kartoshka, 1,7 ming gektarga piyoz, 1,7 ming gektarga sabzi, 1,4 ming gektarga karam, 1,1 ming gektarga sarimsoqpiyoz, 0,9 ming gektarga sholg‘om va turp, 2,5 ming gektarga pomidor, 1 ming gektarga ko‘katlar, 11,5 ming gektarga boshqa ekinlar ekilgan.

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tizimida tut ko‘chati yetishtirish bilan 22 ta tutchilik xo‘jaliklari hamda ipakchilik klasterlari qoshidagi tut ko‘chati yetishtiruvchi kasanachilar shug‘ullanib kelmoqda. 2022-yilda tizim tashkilotlari tomonidan respublika bo‘yicha jami 143,7 mln tup, shundan tutchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda 64 mln tup, pillachilik klasterlarida 22,9 mln tup, aholi xonadonlarida 51,6 mln tup va o‘rmon xo‘jaliklarida 5,2 mln tup tut ko‘chatlari yetishtirilgan.

O‘zbekiston tarixida ipakchilik yo‘nalishida birinchi marta tut ko‘chatlarini eksport qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. 2017-yilda 7,5 mln tup, 2019-yilda 13,4 mln tup, jami 20,9 mln tup tut ko‘chatlari 1,1 mln AQSh dollar evaziga import qilingan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib, Qozog‘iston Respublikasining TOO “ASVS Oyl” korxonasi bilan Andijon viloyatidagi “Ipak” tutchilikka ixtisoslashgan xo‘jalik o‘rtasida 2021–2025-yillarda 27 mln tup tut ko‘chati yetkazib berish va parvarishlash agrotexnikasi bo‘yicha 2,4 mln AQSh dollarlik eksport shartnomasi imzolangan.

O‘zbekistonda pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan e‘tibor, yaratilgan qator imtiyoz va imkoniyatlar o‘z-o‘zidan mazkur yo‘nalishda faoliyatini olib borish istagidagi korxonalar sonining ortishiga zamin yaratgan. 2017-yilning sentyabr oyida O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida yigirmanchi davlat sifatida Xalqaro ipakchilik kengashiga (ISC) a‘zo bo‘lgach, “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi qoshida 13 ta hududiy, 144 ta tuman “Agropilla” MChJlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda tizimda 11 ta ipak qurti urug‘i tayyorlovchi, 71 ta klaster usulida pillani yetishtirish va qayta ishlash asnosida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Jami 761 mingta ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, shundan 24 ming 440 tasi doimiy va 736 ming 567 tasi mavsumiy ish o‘rnidir.

Respublikada pillachilikning ozuqa bazasini jadal rivojlantirish; ipak qurtini parvarish qilish va pilla yetishtirish jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish; pilla, xom ipak, ipak kalava ishlab chiqarish va ularni chuqur qayta ishlashning samarali usullarini keng joriy etish; ipakdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish; sohaning eksport salohiyatini yuksaltirish hamda qishloq joylarda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirishni ta‘minlaydigan yagona va yaxlit tashkiliy-texnologik tizimni barpo etish asosida pillachilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ-2856-sonli qarori bilan “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil etilgan.

Ipak va ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekistondagi eng yetakchi hudud Samarqand viloyati hisoblanib, jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 13,1 foizi ushbu viloyat hissasiga to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinlarni esa 12,6 foiz ulush bilan Andijon viloyati, 10,3 foiz ulush bilan Buxoro viloyati egallaydi. 2022-yilda respublika bo‘yicha 2 trln so‘mdan ortiq ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich qariyb 3 trln so‘mga yetishi prognoz qilingan (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha ipakchilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi¹³, mlrd so‘m

T/r	Hududlar	Yillar					O‘sish sur‘ati, %
		2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	
	jami:	592,4	861,1	1 140,50	2 014,9	2 997,0	505,9
1	QQ Respublikasi	18,5	28,6	38,0	69,9	103,0	556,8
	Viloyatlar						
2	Andijon	82,3	110,6	147,5	254,6	381,0	462,9
3	Buxoro	61,3	71,1	119,5	208,2	310,7	506,9
4	Jizzax	17,8	29,5	38,0	71,7	105,0	589,9
5	Navoiy	59,6	81,7	108,6	87,1	128,8	216,1
6	Namangan	26,4	37,8	48,3	168,6	250,9	950,4
7	Qashqadaryo	49,8	73,3	95,6	190,2	283,6	569,5
8	Samarqand	79,6	130,7	147,4	263,2	390,4	490,5
9	Surxondaryo	45,0	67,0	86,9	152,5	227,2	504,9
10	Sirdaryo	12,9	18,6	31,5	53,8	80,8	626,4
11	Toshkent	34,2	58,8	77,6	140,7	207,8	607,6
12	Farg‘ona	55,1	81,6	105,9	189,3	280,7	509,4
13	Xorazm	50,2	71,7	95,6	165,1	247,0	492,0

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalar tomonidan 2017-yilda jami tolaning 56,0 foizi ichki korxonalarda qayta ishlash uchun yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 85,8 foizni tashkil etgan. Ipak momig‘ining esa 2022-yilda qariyb 77,23 foizi ichki ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan (4-jadval).

4-jadval

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi mahsulotlarining iste‘molga yo‘naltirilishi¹⁴

Mahsulot turi	O‘lchov birligi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Mahsulot ishlab chiqarish							
Ipak tolasi	tonna	526,3	785,0	1 000,0	1 200,0	1 570,0	2 500,0
Ipak momig‘i	tonna	455,5	511,3	700,0	800,0	1 100,0	1 200,0
Ipakli matolar	ming m2	811,0	870,0	2 150,0	2 557,0	3 651,4	12341,8
Ekspart							
Xom ipak	tonna	231,8	597,9	782,0	519,8	453,5	429,0
Ipak momig‘i	tonna	102,6	552,9	608,7	814,4	702,1	273,2
Ipak mato	ming m2	231,8	1 001,1	2 955,7	788,1	447,0	754,4
Jami:							
Ichki iste‘molga yo‘naltirish (ishlab chiqarish va iste‘mol)							
Ipak tolasi	tonna	294,5	187,1	218,0	680,2	1 116,5	2 071,0
	%	56,0	23,8	21,8	56,7	71,1	82,8

¹³ “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹⁴ “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mahsulot turi	O'lchov birligi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Ipak momig'i	tonna	352,9	-41,6	91,3	-14,4	397,9	926,8
	%	77,48	108,14	13,04	101,80	36,17	77,23
Ipakli matolar	ming m ²	579,2	-131,1	-805,7	1 768,9	3 204,5	11 587,4
	%	71,4	115,1	137,5	69,2	87,8	93,9


2017–2022-yillarda ipakli matolar ishlab chiqarish hajmi 15,2 foizga oshgan. Ishlab chiqarilgan ipakli matolarning 2017-yilda 71,4 foizi, 579,2 ming m² mato ichki ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va ular tayyor mahsulot sifatida ichki bozorlarda sotilgan. Ipakli matolarning, asosan, mahalliy bozorlarga yo'naltirilganligi ularning jahon bozorlarida yuqori raqobatbardosh emasligidan dalolat beradi. Mazkur holat 2022-yilda ham kuzatilgan bo'lib, jami ishlab chiqarilgan ipak matolarning qariyb 93,9 foizi ichki iste'molga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya doirasida ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatiga qilinayotgan xarajatlar tarkibi bo'yicha samaradorlikni baholash imkoni mavjud emas. Bunga asosiy sabab sanoat korxonalarida dissertatsiya doirasida tizimlashtirilgan marketing faoliyati xarajatlari umumiy statistikasi yig'ib borilmaydi. Shunga ko'ra, ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini aniqlash uchun 9 ta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatlar, har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha 5 ta operatsion faoliyatlar ro'yxati tizimlashtirildi. So'rovnoma usulidan foydalanish asosida korxonalarining marketing bo'limlari tomonidan amalga oshirilayotgan 9 ta yo'nalish bo'yicha operatsion faoliyatlariga baho berish uchun anketa so'rovnomalari o'tkazilgan. So'rovnoma ma'lumotlarini tahlil qilishda SmartPLS paket dasturiy vositasi PSL algoritmiga asoslangan usuldan foydalanilgan. Asosiy o'zgaruvchilar sifatida marketing faoliyatini baholash bo'yicha tanlangan 9 ta mustaqil o'zgaruvchilar hamda marketing faoliyatining samaradorlik mezonlari sifatida 3 ta yo'nalish: korxonalarining bozor ulushi o'zgarishi, rentabellik darajasi hamda raqobatbardoshlik darajasi bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tanlangan.

Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish jarayonlari va faoliyat samaradorligi tahlilini amalga oshirishning metodologik yondashuvi 3-rasmga ko'ra ishlab chiqilgan.

Har bir yo'nalish bo'yicha korxonalaridan anketa so'rovlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish uchun docs.google.com platformasidan foydalaniladi. Mazkur platforma orqali shakllantirilgan anketa so'rovnomalari <https://uzbekipaksanoat.uz/> rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilgan. Anketa <https://forms.gle/MMyEVoKjdRqnskFSA> havolasi orqali yig'ilgan. Anketada jami 112 ta urug'chilik, pillachilik, tutchilik, to'qimachilik va gilamchilik korxonalari ishtirok etgan. Anketa bo'yicha umumiy natijalar SPSS statistical paket dasturidan foydalangan holda shkalaga o'tkaziladi va SmartPLS paket dasturiy vositasi PSL algoritmiga asoslangan usul bo'yicha tahlillarni amalga oshirishga moslashtirilgan. Marketingni boshqarish samaradorligini aniqlash uchun SmartPLS paket dasturiy vositasi PSL algoritmiga


asoslangan usuldan foydalanilgan. PSL algoritmgiga asoslangan usul SmartPLS paket dasturiy vositasining “Bootstrapping” moduli asosida amalga oshirilgan.



3-rasm. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash modeli¹⁵

“Bootstrapping” asosida olingan modelning vizual ko‘rinishi 4-rasmda aks etgan. Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, korxonalarining bozor faoliyati samaradorligi korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan yo‘nalishlarining kuchli bog‘liq ekanligini kuzatish imkonini bergan. Korxonalarining bozordagi faoliyat samaradorligi ularning marketing faoliyatini boshqarish darajasi o‘rtasidagi umumiy korrelyatsiya $\beta=0,829$ ($P_{\text{values}}=0,0005$)ni tashkil etdi. Demak, ipakchilik korxonalarining bozorga moslashuvi, rentabelligi va raqobatbardoshlik darajasi korxonalarining marketing faoliyatini boshqarishga yuqori darajada bog‘liq (4-rasm).

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.



4-rasm. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash modeli qiymatlari¹⁶

Ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini baholash bo'yicha tanlangan jami 9 ta mezonga ko'ra, umumiy samaralar statistikasi 5-jadvalda aks etgan.

5-jadval

Ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash¹⁷ (Mean, STDEV, T-values, p-values)

	β koeffitsiyentlar	Standard Deviation (STDEV)	T Statistics (O/STDEV)	P Values
F1 <- F	0,484	0,070	6,922	0,000
F2 <- F	0,663	0,071	9,341	0,000
F3 <- F	0,706	0,060	11,799	0,000
F4 <- F	0,518	0,099	5,224	0,000
F5 <- F	0,549	0,090	6,121	0,000
F6 <- F	0,796	0,035	22,806	0,000
F7 <- F	0,734	0,050	14,601	0,000
F8 <- F	0,731	0,052	14,096	0,000
F9 <- F	0,829	0,022	37,278	0,000
R1 <- R	0,868	0,035	24,605	0,000
R2 <- R	0,887	0,020	43,546	0,000
R3 <- R	-0,465	0,111	4,185	0,000

Natijalarga ko'ra, ipakchilik korxonalarini tomonidan amalga oshirilayotgan marketing faoliyatini boshqarish holati barcha korxonalarda ijobiy samaralar bermoqda. Biroq korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish ularning raqobatbardoshligini oshirishga aks ta'sir etgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, korxonalar o'zining marketing faoliyatidagi asosiy e'tiborini bozor ulushini oshirish va rentabellikni ta'minlashga qaratadi. Tahlil natijalarida korxonalarda raqobatda ustunlikni ta'minlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi aniqlandi. Ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini boshqarish darajasini o'rnatilgan samaradorlik mezonlari asosida baholash natijasida korxonalarining marketing tadqiqotlarini olib borish, tovar siyosati, taqsimot

¹⁶ SmartPLS dasturi asosida olingan natijalar

¹⁷ SmartPLS dasturi asosida olingan natijalar

kanallarini tanlash va sotish siyosati bo'yicha past ijobiy ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu holatlarni nazarda tutgan holda, aytish mumkinki, ipakchilik korxonalarida marketing MIKS kompleksini samarali tashkil etish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilash ustuvor yo'nalishdir.


Marketing bo'limi diqqat-markaziga mahsulotning yakuniy iste'molchilari bilan bog'liq barcha muammolar tushadi, bu paytda boshqa bo'linmalar o'z e'tiborini boshqa turli vazifalarga qaratgan bo'ladi. Marketing bo'limining tashkiliy tuzilishi har bir korxonada faoliyatiga uning ishlab chiqarishi (xizmat ko'rsatish) hamda bozorining hajmiga mos kelishi kerak.

Ipakchilik korxonalarining marketing bo'limlari faoliyati ham aynan korxonaning bozor faoliyatida barcha funksiyalarni tezkor va samarali boshqarishga qaratilishi lozim. Ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda, ipakchilik korxonalarining marketing bo'limlari o'ziga xos tarzda tuzilishi zarur. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi tarmoq korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi tashkiliy bo'limlar faoliyatini "tarmoq+korxonada" parallel marketing siyosati asosida takomillashtirish taklif etiladi (5-rasm). Mazkur yondashuv ipakchilik korxonalarining marketing bo'limlari faoliyati "O'zbekipaksanoat" uyushmasining ijro apparati tuzilmalariga mos keluvchi bo'limlar faoliyatiga mutanosiblikni ta'minlashga erishishga qaratilgan.

Aksariyat korxonalar amaliyotida marketing bo'limlari, tashqi savdo bo'limi va ishlab chiqarish bo'limi faoliyati alohida ajratilgan. Ipakchilik korxonalarining dizaynerlik bo'limlari mahsulotlarni bozorga moslashtirish vazifasini bajaradi. Fikrimizcha, dizaynerlik bo'limlari faoliyati to'qimachilik va tikuvchilik sanoati uchun mos keluvchi bozor segmentlari asosida tashkil etilishi nazarda tutilishi lozim. 6-rasmدا tavsiya etilgan shakllar bo'yicha marketing bo'limlari faoliyatini tashkil etish "tarmoq+korxonada" parallel marketing siyosatini amalga oshirishda ijobiy natijaga erishish imkonini beradi.

Ipakchilik mahsulotlarining assortimenti keng va mahsulot turlari ko'p bo'lganligi sababli korxonalarida marketing bo'limlari assortimentli va nisbatan bir xil bozorlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar marketing bo'limlari tovarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Sanoat korxonalarida marketing bo'limlari faoliyatining integratsiyalashuvi tashkiliy maqsadlarga erishishda yaxlit va samarali yondashuvni ta'minlash uchun juda muhimdir.

"Tarmoq+korxonada" parallel marketing siyosati asosida amalga oshiriladigan marketingni boshqarish quyidagi sohalarida iqtisodiy samaradorlikka erishishga olib keladi: funksional hamkorlik, umumiy maqsadlarga erishish, integratsiyalashgan aloqa kanallari orqali sinergiyaga erishish, ma'lumotlarni almashish va tahlil qilishga asoslangan CRM tizimlarini faol joriy etish, mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida faoliyat yuritish, umumiy brending va milliy brend identifikatsiyalarini yaratish, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsiyalar diffuziyasi hamda texnologiya integratsiyasiga asoslangan sinergiya samarasi.



5-rasm. Ipakchilik korxonalarida marketing bo'limini tashkil etishning “tarmoq+korxonalar” parallel yo‘nalishlari¹⁸

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot ishining to'rtinchi bobi **“Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish”** deb nomlangan bo'lib, unda ipakchilik korxonalarining tovar strategiyasini takomillashtirish va eksport imkoniyatlarini oshirish, ipakchilik korxonalarining savdo marketingi tizimining samarali arxitekturasini yaratish hamda marketing kommunikatsiyasi kompleksini samarali boshqarish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

O'zbekistonda ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatining asosiy maqsadi eng yuqori foyda olish asosida kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Lekin bu tanlov zamonaviy marketing konsepsiyalariga mos emas. Agar korxonalar uzoq kelajakni ko'zlab ish yuritayotgan bo'lsa, bu holda u mijozlarga qiymat yaratishga qaratilgan faoliyatni kengroq amalga oshirishi, marketing innovatsiyalariga ko'proq sarmoyalar jalb qilishi va bozorda keng tadqiqotlar olib borishi zarur. Bu tadbirlarning hammasi ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytiradi va foydaning kamayishiga olib keladi. Katta foyda olish har qanday korxonaning asosiy maqsadi, biroq uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyatni ta'minlash uchun an'anaviy “4P” konsepsiyalari doirasini “4C” konsepsiyalari bilan uyg'un holda olib borishi va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishning mijozlarga yo'naltirilgan konsepsiyalaridan foydalanishi lozim.

Korxonalar marketing faoliyatini bozor muhitiga moslashtirish hozirgi vaqtda eng dolzarb muammolardan biridir. Ipakchilik korxonalarining moslashuvchan savdo marketingi arxitekturasini shakllantirish, bir tomondan, boshqarish sohasida marketing vakolatlarining mavjudligi va faoliyat yo'nalishlarining o'zgaruvchan sharoitlariga munosabati bilan bog'liq bo'lgan strategik aktivlar to'plami orqali amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, noyob iste'mol qiymatini yaratishni ta'minlaydigan va barqaror raqobatdosh ustunliklarni shakllantiradigan strategik resurslar hamda salohiyatdan samarali foydalanish talab etiladi.

Dissertatsiyada savdo tizimidagi marketing elementlari, vositalari hamda savdo marketingi tizimining salohiyati (ko'nikma va kompetensiyalar) to'plami kabi 3 ta omilning o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish asosida strategik yo'nalishlar belgilangan. Mazkur amaliyot O'zbekistondagi yetakchi ipakchilik korxonalarining vertikal marketing tizimini yaratgan hamda eng yirik ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lgan “Andijan Silk Co” QKda sinovdan o'tkazilgan. Korxonalarining savdo marketingi tizimi, vositalari va salohiyatini 3 ta to'plamdan iborat omillar majmuyi tashkil etadi, ular: savdo marketingi tizimining asosiy elementlari to'plami ($F = f_1, f_2, f_3, \dots, f_n$), savdo marketingidagi asosiy vositalar to'plami ($A = a_1, a_2, a_3, \dots, a_n$), savdo marketingi salohiyati to'plami ($K = k_1, k_2, k_3, \dots, k_n$).

Ushbu to'plamlar o'rtasidagi munosabatlarning ichki tuzilishini modellashtirish quyidagi matritsalarini tuzish yo'li bilan ekspert baholash usuli asosida amalga oshirilgan:

1. Savdo marketingidagi asosiy vositalar va savdo marketingi salohiyati o'rtasidagi munosabatlar matritsasi $\{KA\}$ marketing vositalarini shakllantirishda marketing salohiyatidan foydalanish darajasini belgilaydi:

$$\overline{K_i A_j} = \frac{\sum_{i=1}^m \frac{\sum_{j=1}^n k a_{ij}}{n}}{m}; \quad (4.1)$$

bu yerda:

ka_{ij} – j – marketing vositalarini shakllantirishda i – marketing salohiyati (ko‘nikma va kompetensiyalar)dan foydalanish darajasi;

n – marketing vositalari soni;

m – marketing salohiyatini belgilovchi omillar soni.

2. Savdo marketingi salohiyati (ko‘nikma va kompetensiyalar) to‘plami va asosiy elementlari to‘plami o‘rtasidagi munosabatlar matritsasi $\{KF\}$ marketing salohiyatining savdo marketingi tizimini shakllantirishga ta’sir qilish darajasini belgilaydi:

$$\overline{K_i F_j} = \frac{\sum_{i=1}^m \frac{\sum_{r=1}^r k f_{ij}}{r}}{m}; \quad (4.2)$$

bu yerda:

$k f_{ij}$ – savdo marketingi tizimining j – elementini shakllantirishda i – marketing salohiyatining ta’siri;

r – savdo marketingi tizimining elementlari soni;

m – marketing salohiyatini belgilovchi omillar soni.

3. Savdo marketingi tizimining asosiy elementlari va vositalar to‘plami o‘rtasidagi munosabatlar matritsasi $\{FA\}$ savdo marketingi tizimini shakllantirishda marketing vositalarining ta’sir qilish darajasini aniqlaydi:

$$\overline{F_i A_g} = \frac{\sum_{i=1}^m \frac{\sum_{n=1}^n f a_{ig}}{n}}{m}; \quad (4.3)$$

bu yerda:

$f a_{ig}$ – savdo marketingi tizimining g – elementini shakllantirishda i – marketing vositalarining ishtiroki;

n – savdo marketingi tizimi elementlari soni;

m – marketing vositalari soni.

Savdo marketingi tizimi moslashuvchanlik darajasining yakuniy ko‘rsatkichi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:


$$Y_d = \frac{\overline{K_i A_g} + \overline{K_i F_j} + \overline{F_i A_g}}{(K_i A_g)^{max} + (K_i F_j)^{max} + (F_i A_g)^{max}} * 100 \quad (4.4)$$

$(K_i A_g)^{max} + (K_i F_j)^{max} + (F_i A_g)^{max}$ - hisoblangan koeffitsiyentlarning maksimal qiymatlari.

Baholash natijalariga Y_d qiymatlari asosida insorsing, autsorsing, autstaffing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari belgilab beriladi. Bunda quyidagi shartlar kiritiladi: logistika xizmatlarining avtonom tizimida insorsing ($0 \leq Y_d \leq 0,15$); qisman logistika xizmatlarida autsorsing ($0,16 \leq Y_d \leq 0,31$); murakkab logistik xizmatlarda autsorsing ($0,32 \leq Y_d \leq 0,65$); malakaga erishish uchun tashqi ishchi kuchidan foydalanishda autstraffing ($0,66 \leq Y_d \leq 1$) strategiyalaridan foydalanish.

To‘plamlar o‘rtasidagi munosabatlarning ichki tuzilishini modellashtirish uchun birinchi bosqichda 3 ta komponent bo‘yicha matritsalar tuziladi. Mazkur matritsalar asosida har bir to‘plamga umumiy baho beriladi. Keltirib o‘tilgan baholash usuliga ko‘ra hisoblangan natijalar quyidagicha:

$$Y_d = \frac{\overline{K_i A_g} + \overline{K_i F_j} + \overline{F_i A_g}}{(K_i A_g)^{max} + (K_i F_j)^{max} + (F_i A_g)^{max}} * 100 = \frac{5,1 + 5,8 + 8,4}{8,4 + 11,2 + 11,3} = 62,42$$



6-rasm. Ipakchilik korxonalarining taqsimot kanallarida qo'shilgan qiymat yaratishga asoslangan savdo marketingi arxitekturasi¹⁹

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Baholash natijalari “Andijan silk co” QKning savdo marketingi arxitekturasini samarali qurish uchun tahlil natijalaridan kelib chiqqanda, murakkab logistik xizmatlarda autsorsing ($0,32 \leq Y_d \leq 0,65$) strategiyasidan foydalanish orqali samarali savdoni amalga oshirish taklif etiladi.

Muallif tomonidan korxonada rahbariyatining maqsadli bozor to'g'risidagi bilimlar tizimini shakllantirish, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, tarkibiy bo'linmalarining marketing harakatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak, degan xulosaga kelingan. O'zaro hamkorlik strategiyasini ishlab chiqishning biznes darajasi ikki sohani qamrab oladi: biznesda o'zaro munosabatlar strategiyasi va raqobat strategiyasi.

O'zaro munosabatlar strategiyasi ishlab chiqaruvchi, distribyutor va chakana sotuvchining bozorni tanlash, sotish shakli, tarqatish tizimi va sotish kanallari, logistika xizmati tizimi va mijozlar bazasini shakllantirish sohasidagi yo'nalishini belgilaydi (6-rasm)

Ma'lumki, ipak mahsulotlariga bo'lgan talab jahon bozorlarida yuqori hisoblanadi. Ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanishi asosida eksport ko'lamining kengayib borishini ham prognoz modellar orqali aniqlash imkoniyati mavjud. Ipakchilik mahsulotlari o'zining tabiiyligi va shaffofligi, ekologik va biologik jihatdan inson tanasiga ta'sirining kamligi mazkur mahsulotlarga bo'lgan talabning shakllanishidagi asosiy xususiyatlardir. Ayniqsa, ipak matolardan tikilgan kiyimlar yuqori narx toifasiga mansub bozor segmentlari uchun mos mahsulotlar hisoblanadi. Shuning uchun mahsulot assortimentini kengaytirish va segmentlar bo'yicha differentsiyalash kabi strategiyalarning o'zi eksportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishidir.

Regressiya modeli asosida ipakchilik mahsulotlari eksportining ishlab chiqarishga bog'liq ravishda rivojlanishining istiqbolli parametrlarini prognozlash imkoniyati mavjud. P-qiymati 0,05 dan kichik bo'lgan ishonchlilik darajasi bilan ipak mahsulotlari ishlab chiqarishni bir-birlikka oshirish natijasida eksport 0,4 foizga o'sishi aniqlandi. Statistik ma'lumotlar asosida aniqlangan logarifmik funksiya quyidagicha:


$$\hat{Y}_{EX} = e^{1,507} * ICH^{0,405}; \quad (4.5)$$
$$R^2 = 0,879; \rho(ex) = 0,00005; \rho(ICH) = 0,00000$$

Olingan logarifmik funksiya asosida eksportning rivojlanishini prognozlash uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmining davriy rivojlanishini prognozlash amalga oshirilgan. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulot turlari va assortimentiga ko'ra, prognoz qiymatlar asos qilib olinadi. Har bir mahsulot turlari bo'yicha 2023–2027-yillarda o'rtacha o'sish darajasi 1,8-martani tashkil etgan. Qiymat ko'rinishida rivojlanish dinamikasini prognozlash uchun quyidagi chiziqli funksiyadan foydalanilgan:

$$\widehat{ICH}_t = 33,252t^2 - 322,81t + 631,48; \quad R^2 = 0,9309; \quad (4.6)$$

(3.3) funksiya asosida “O'zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida ipakchilik faoliyati jarayonlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarning davriy rivojlanishiga ko'ra, ekonometrik modellashtirish asosida 2027-yilga qadar mahsulot

ishlab chiqarish va eksport hajmining prognoz ko‘rsatkichlari natijalari 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmining 2027-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari²⁰

Prognoz natijalariga ko‘ra, “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarmoq korxonalarida ipakchilik faoliyati jarayonlari dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarga ko‘ra hamda mahsulot ishlab chiqarishning natura qiymatlarini oshirish orqali 2027-yilga qadar eksport hajmining yuqori darajada o‘shishi kuzatiladi. 2023-yilga nisbatan 2027-yilda ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,8-marta, eksport esa 1,9-martaga o‘sadi. Eksport tarkibida yarimtayyor mahsulotlar ulushi 2023-yilga nisbatan 2027-yilda 22 foiz, tayyor mahsulotlar ulushi esa 36 foizga oshadi. Umuman olganda, barcha turdagi mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ipakchilik korxonalarining jami eksporti 2027-yilda 184,8 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tovarga yo‘naltirilgan marketingdan (1.0.) mijozga yo‘naltirilgan marketingga (2.0.), keyingi tendensiya insonga yo‘naltirilgan marketingga (3.0.), marketing (4.0.) esa raqamli texnologiyalardan foydalanish asosiy mijozlar bilan samarali kommunikatsiya imkoniyatini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, marketing (5.0.) jismoniy va raqamli kommunikatsiya nuqtalarini umumiy marketing konsepsiyalariga birlashtirish va raqamli transformatsiyaga qaratilgan. Marketingning mijozlar va texnologiyalar taraqqiyoti darajasida turli konsepsiyalari shakllandi va rivojlandi. Biroq barcha konsepsiyalarda ma’lum bir umumiylik bor: u ham bo‘lsa, “cheksiz ehtiyojlarni eng samarali usullarda qondirish” muammosini aynan marketing hal eta olishidir. Mijozlarga qiymat yaratishga qaratilgan marketing faoliyatini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini sanoat tovarlari, jumladan, ipakchilik sanoati uchun ham shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

²⁰ Muallif ishlanmasi.

2. Marketingni boshqarish funksiyalari zamonaviy sharoitda korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantiradigan, innovatsion sikl davomida mijoz bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradigan boshqaruvini tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga, tarmoq va sohalar marketing tizimlari subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarning ko‘p formatli modelining integratsiyalashgan marketing imkoniyatlaridan foydalanish zamonaviy marketing boshqaruvining asosiy metodologik yondashuvi bo‘lishini talab etdi.

3. Marketingni tashkil etishda ishlab chiqarish tuzilmasi marketing vazifalariga bo‘ysunuvchan holatda bo‘ladi: asosiy hisoblangan “qo‘shimcha qiymat”ning olinishini esa ishlab chiqarish emas, aynan marketing ta‘minlab beradi. Nomoddiy aktivlar biznesi qiymatlari (brendlar, tovar harakati zanjiri, servisi, texnologiyasi, nou-xau), ishlab chiqarish ustidan hukmronlikni faqat marketing boshqara oladi.

4. Marketing faoliyatini boshqarish esa marketing maqsadlarini belgilash, marketing rejalarini ishlab chiqish, marketing usullari va vositalarini tahlil qilish, marketing xizmatining tashkiliy tuzilmasini loyihalash va ishlab chiqish, shu jumladan, ularning faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni (buyruqlar, ko‘rsatmalar) ishlab chiqish, harakatlarni muvofiqlashtirish kabi tartiblarni o‘z ichiga oladi. Marketing muammolarini hal qilishda resurslar va marketing natijalarini nazorat qilish marketing bo‘lmagan bo‘linmalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

5. O‘zbekistonda pillachilik klasterini tashkil etishda korxonalarining hududdagi asosiy, an’anaviy (masalan, tut niholi va ko‘hati yetishtirish, ipak qurtini ko‘paytirish va boshqalar) iqtisodiy faoliyat turlari bilan bir qatorda, yangi – tut choyi, gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish kabi noan’anaviy faoliyat turlariga ham e’tibor qaratilmoqda. Bulardan ipak qurti yetishtirish va ipakni qayta ishlashni o‘z ichiga oluvchi sanoat o‘ziga xos tarmoq bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va 60 dan ortiq mamlakatlarda mavjud bo‘lgan, yuqori bandlik salohiyatiga ega hamda eng daromadli tarmoq hisoblanadi. Ipak o‘zining nafisligi, nozikligi va ekologik tabiati tufayli bozorda ehtiyoji yuqori bo‘lgan mahsulotdir.

6. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil etilgan 2017-yilda mamlakatimizda pillani qayta ishlovchi korxonalar soni 19 ta bo‘lgan. Bugun ularning soni 75 taga yetdi. Korxonalarining birortasi ham past rentabellilar ro‘yxatiga kirmaydi, nolikvid ham emas. Aksincha, ular to‘lov qobiliyatiga ega ishlab chiqarish subyektlari hisoblanadi. Ipakchilik korxonalarining rentabellik ko‘rsatkichlari 18–26 foizni tashkil etadi.

7. Korxonaning kommunikatsiya siyosati uning maqsadli bozorga yo‘naltirilgan marketing strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralishi va aniq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilishi lozim. Korxonaning kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqishda tanlagan maqsadi bozor doirasida mahsulotning integrallashgan marketing kommunikatsiyasi maqsadlarini aniq belgilashi lozim. Ipakchilik korxonalarining murakkab va raqobat muhitining kuchayishi, mijozlar istaklari va ehtiyojlarini qondirish va ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish uchun aynan integrallashgan marketing kommunikatsiyalaridan foydalanish zarur.

8. Korxonalar kommunikatsiya maqsadiga erishish uchun nafaqat real kommunikatsiya kanallari, balki virtual bozorlarda ishlashi kerak. Internet-marketing imkoniyatlaridan keng foydalanish (onlayn do‘konlar, tematik portallar, forumlar,

ijtimoiy tarmoqlarda reklama, o'quv vebinarlari tashkil etish, masofaviy qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish) sinergiyaga erishishning asosiy vositalaridir.

9. Korxonada bozorda nafaqat o'z tovarlari imijini oshirish, balki integrallashgan marketing kommunikatsiyasi vositalarini korxonada imiji bilan mutanosib ko'rishni ham nazarda tutishi lozim. Unga, asosan, real bozorda ishlaydigan ma'lum kommunikatsiyalar majmuasini birlashtirish orqali erishiladi.

10. Ipakchilik mahsulotlarining assortimenti keng va mahsulot turlari ko'p bo'lganligi sababli korxonalarda marketing bo'limlari assortimentli va nisbatan bir xil bozorlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar marketing bo'limlari tovarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

11. Marketing MIKSning zamonaviy yondashuvlari asosida ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatini takomillashtirish bo'yicha marketing MIKS strategiyalarini ishlab chiqishni asosiy yondashuv sifatida qabul qilish talab etiladi.

12. O'zbekistonda ipakchilik korxonalarining marketing faoliyatining asosiy maqsadi eng yuqori foyda olish asosida kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Agar korxonada uzoq kelajakni ko'zlab ish yuritayotgan bo'lsa, bu holda u mijozlarga qiymat yaratishga qaratilgan faoliyatni kengroq amalga oshirishi, marketing innovatsiyalariga ko'proq sarmoyalar jalb qilishi va bozorda keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazishi lozim. Uzoq muddatli istiqbolda korxonada samarali faoliyatni ta'minlash uchun marketing faoliyatining an'anaviy "4R" konsepsiyalari doirasini "4S" konsepsiyalari bilan uyg'un holda olib borishi zarur.

13. Ipakchilik korxonalarining tovar strategiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi maqsadli assortimentni shakllantirish va uning optimal to'plamini yaratishdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DS.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЖУМАЕВ ОЛИМЖОН САДУЛЛОЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ
МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ШЕЛКОВЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ**

08.00.11 – Маркетинг

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2024

Тема докторской диссертации зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией (регистрационный номер B2019.2.DSc/Iqt176).

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	Эргашходжаева Шахноза Джасуровна доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хашимов Акрам Абдиевич доктор экономических наук, профессор Солиев Ахмаджон доктор экономических наук, профессор Абдуллаев Илёс Султанович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный №__). (Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(протокол реестра №__ от «__» _____ 2022 года).

Г.К. Абдурахманова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней д.э.н., профессор

О. Дж. Джурабаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., и.о.доцента

Р.Х. Карлибаева

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сложная геополитическая ситуация в странах мира не позволяет производителям промышленной продукции свободно действовать на целевом рынке. Все более обостряющиеся международные и национальные конкурентные условия требуют от производителей применения новых и современных средств конкурентной борьбы. В производстве крупных брендовых компаний легкой промышленности используются эффективные клиентоориентированные маркетинговые стратегии как источник экономического роста. Ожидается рост объема производства мирового рынка шелка до 22,1 млрд. долларов США к 2027 году, который в 2020 году оценивался в 14,1 млрд. долларов США, темпы роста в 2020-2027 годах прогнозируются на уровне 6,6 процентов.²¹ Тенденции развития шелковой отрасли указывают на необходимость непрерывного совершенствования методологии управления маркетинговой деятельностью предприятий.

В мировой текстильной промышленности проводятся ряд научных исследований по изучению основных тенденций увеличения спроса на шелк, изменения тенденций моды и увеличения покупательной способности в развивающихся странах. Исследование отраслевых особенностей и принципов развития шелковой промышленности, разработка инновационных клиентоориентированных маркетинговых стратегий, внедрение инновационного маркетингового управления, формирование мировых брендов в индустрии шелковой моды, управление бизнес-процессами на основе концепций «Маркетинг 4.0.» и «Маркетинг 5.0.», использование маркетинговых стратегий «4С» при организации взаимоотношений с клиентами являются приоритетными направлениями научных исследований, проводимых в этой области.

В Узбекистане проводятся масштабные меры, направленные на углубление экономических реформ в шелковой отрасли, создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций, строительства новых и модернизации существующих предприятий, увеличения объемов производства и диверсификации востребованной и конкурентоспособной на мировом рынке готовой продукции. Указом Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» в качестве стратегической задачи определено «увеличение экспорта шелковой продукции до 95 млн. долларов США»²². В этой связи требуется проведение научных исследований по поэтапному переходу к кластерному методу организации производства шелковой продукции в Узбекистане, созданию собственной кормовой базы предприятий по переработке коконов, широкому внедрению инновационных технологий выращивания коконового

²¹ Lian, R. T., & Chen, C. (2019, July). Analysis of the Status Quo and Problems of Sichuan Silk Export. In 5th Annual International Conference on Management, Economics and Social Development (ICMESD 2019) (pp. 284-288). Atlantis Press

²²Информация Международного союза электросвязи (ITU) — www.itu.int

сырья и глубокой переработке до экспортной готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, разработке стратегий инновационного развития и совершенствования управления маркетинговой деятельностью шелковых предприятий путем проведения углубленных маркетинговых исследований на международных рынках.

Данное диссертационное исследование в определенной мере способствует выполнению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-85 от 1 июня 2023 года «О дополнительных мерах по поддержке надомничества в сфере шелководства и дальнейшему расширению кормовой базы для выращивания шелкопряда», №УП-6059 от 2 сентября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию шелководства и каракулеводства в Республике Узбекистан», в постановлениях №ПП-4567 от 17 января 2020 года «О дополнительных мерах по развитию кормовой базы тутового шелкопряда в шелководческой отрасли», №ПП-4411 от 31 июля 2019 года «О дополнительных мерах по развитию глубокой переработки в шелковой отрасли», №ПП-4047 от 4 декабря 2018 года «О дополнительных мерах по поддержке ускоренного развития шелковой отрасли в республике», №ПП-3910 от 20 августа 2018 года «О мерах по дальнейшему эффективному использованию имеющихся возможностей шелковой отрасли в республике», в Государственной стратегической программе Стратегия развития нового Узбекистана (2022-2026 годы) и других нормативно-правовых актах этой сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²³. Исследования по совершенствованию методологии управления маркетинговой деятельностью на шелководческих предприятиях проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в частности Johns Hopkins University, Harvard University, Framingham State University (США), Cambridge University (Великобритания), Beijing Institute of Fashion Technology (Китай), Vikram University (Индия), Tamil Nadu Agricultural University (Индия), Kyoto University (Япония), Comilla University (Бангладеш), Yildiz Technical University (Турция).

На основе проведенных в мире научных исследований проводились исследования, направленные на развитие шелковой промышленности, создание

²³ Dissertatsiya ishida quyidagi bir qator xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan: The Digitalization of the World: From Edge to Core. An IDC White Paper-#US44413318. International Data Corporation; Nov 2018, www.itu.int, www.forrester.com, www.capgemini.com, mitsloan.mit.edu, eng.kist.re.kr, www.cnet.com, www.nielsen.com, www.kantar.com, accenture.com, www.mckinsey.com, www.ipsos.com, www.gfk.com, www.bcg.com, www.ieee.org, www.ibm.com/consulting, www.microsoft.com, www.sap.com, www.oracle.com

вертикальных интеграционных систем, использование современных методов продаж и эффективного управления цепочкой поставок шелководческих предприятий, управление маркетинговой деятельностью предприятий и создание стоимости в цепочке добавленной стоимости. В частности, в результате проведенных в мире исследований по совершенствованию методологии управления маркетинговой деятельностью на шелководческих предприятиях были исследованы научно-методологические основы управления маркетинговой деятельностью на промышленных предприятиях (Johns Hopkins University, США); разработаны инновационные средства цифровой трансформации маркетинговой деятельности предприятий (Harvard University, США), усовершенствованы методологические основы эффективного использования маркетинговых исследований на рынке шелковых изделий (Framingham State University, США), изучены научно-теоретические основы маркетингового менеджмента по промышленному маркетингу и рынку B2B (Cambridge University, Великобритания), проведены исследования, направленные на осуществление производства шелковых изделий с учетом мировых тенденций моды (Beijing Institute of Fashion Technology, Китай), проведены исследования по совершенствованию торгово-маркетинговой инфраструктуры шелковой продукции (Vikram University, Индия), проведены исследования по разработке механизмов создания высокой добавленной стоимости на основе эффективной переработки шелковичного сырья (Tamil Nadu Agricultural University, Индия), изучены международный рынок шелка и тенденции его развития (Kyoto University, Япония), выявлены общие проблемы стран мира на рынке шелковых изделий (Comilla University, Бангладеш), определены методы и конкретные направления формирования спроса на шелковые изделия в зарубежных странах (Yildiz Technical University, Турция).

В различных научно-исследовательских центрах и высших образовательных учреждениях мира проводятся исследования по решению проблем, связанных с управлением маркетингом в шелковой отрасли, в частности проводятся исследования по совершенствованию методологии разработки маркетинговой стратегии шелковой продукции, повышению эффективности управления рыночной деятельностью предприятий, созданию цепочки добавленной стоимости в шелковой промышленности, увеличению экспортных возможностей, диверсификации продукции путем применения инновационных технологий в шелководстве, использованию инновационных методов производства и сбыта шелка и шелковых изделий, внедрению концепций «Маркетинг 4.0.» и «Маркетинг 5.0.» в управлении маркетинговой деятельностью на предприятиях и разработке инновационной системы управления проблемными рынками.

Степень изученности проблемы. Научно-теоретические аспекты методологии управления маркетинговой деятельностью предприятий были подробно освещены в работах многих зарубежных ученых, таких как Ansoff I.,

